



Namangan viloyati statistika boshqarmasi

2018 yil yanvar-may oylarida QURILISH ISHLARI

Joriy yilning yanvar-may oylarida viloyatda 656,0 mlrd. so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,9 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 29,7 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 123,9 foizni, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 375,7 mlrd. so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,1 foizni va norasmiy sektorlar tomonidan esa 250,6 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,0 foizni tashkil etdi.






Qurilish hajmining eng yuqori darajasi quyidagi hududlarda kuzatildi:

- Norin tumanida (48,9 mlrd.so'm yoki 157,6 %) - Norin tumanida jismoniy shaxlar tomonidan yangi qurilgan , kadastr hujjatlari shakllantirilgan yakka tartibdagi turar joylarni qurish ishlari bajarilgan;
- Chortoq tumanida (43,2mlrd.so'm yoki 117.1 %)- Chortoq hududida kichik biznes sub'ektlari tomonidan issiqxonalar qurish hisobiga amalga oshirildi;
- Namangan tumanida (83,2 mlrd.so'm yoki 111,1 %)- Namangan tumani hududida kichik biznes sub'ektlari tomonidan bajarilgan ishlar hisobiga amalga oshirildi;

Shu bilan birga, o'tgan yilning mos davriga nisbatan qurilish ishlari hajmining kamayishi Yangiq'o'rg'on tumanida -48.1 mlrd.so'm 70.0% qayd etildi.

2018 yilning yanvar-may oylarida qurilish ishlari umumiy hajmida hududlarning ulushi (umumiy hajmga nisbatan %da)



Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlarining katta qismi Namangan shahrida bajarilgan bo`lib, viloyatda bajarilgan jami qurilish ishlarining 21,5 % ini tashkil etdi, Namangan tumanida 12,7 % ni, Uychi tumanida bajarilgan qurilish ishlari esa 10,5 % ni, tashkil etdi.

Viloyatda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo`yicha past ko`rsatkichlar: Mingbuloq tumanida bu ko`rsatkich eng past 2,8 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Uchqo'rg'on tumanida 3,7 % ni, Chortoq tumanida ushbu ko`rsatkich 6,6 % ni tashkil etganligini kuzatishimiz mumkin.


Qurilish ishlari mavsumining boshlanishi bilan hududlarda bajariladigan qurilish ishlarining hajmi ortib, ularning viloyatdagi ulushi ham o`zgarib boradi.




Mulkchilik shakllari

Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 618,1 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 94,2 foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,1 foiz punktga kamaydi.




■ nodavlat ■ davlat



■ nodavlat ■ davlat



IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.